

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

KURS ISHI

**Mavzu: Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning
vujudga kelishi.**

Bajardi: Nasrullaev T.

Toshkent 2014

Mavzu: Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning vujudga kelishi.

Reja

Kirish

I-bob: Hozirgi qiyofadagi odamlar topilgan manzilgohlar va ularning tavsifi

1.1. Yevropada hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning topilgan manzilgohlari

1.2. Osiyodagi hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning topilgan manzilgohlari.

1.3 Afrikadagi hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlar topilgan manzilgohlar.

II-bob: Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning vujudga kelish Omillari

2.1. Qadimgi odamlarning vujudga kelishida tabiiy omillar ta'siri

2.2. Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari.

2.3. Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning tashqi ko'rinishi, xo'jaligi va mehnat qurollari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Hozirgi ilmiy mulohazalarga ko'ra tadrijiy rivojlanish mahsuli bo'lgan odam bir necha million yillar muqaddam odamsimon maymunlardan vujudga kelgan.

Diniy kitoblarda esa odamzod Olloh taolo tomonidan yaratilgan deyiladi. Olimlar fikricha, yer yuzida odamzod 3-3.5 million yildan beri yashab kelar ekan. Odamzodning paydo bo'lishi haqida turli xalqlar turlicha rivoyatlar to'qiganlar.

Tarixchi, arxeolog va antropolog olimlar esa odamzod yer farzandi, u shu zaminda paydo bo'lib ko'paygan va rivoj topgan, deydilar.

Bu mavzu bugungi kunning eng muhim muammoli masalalaridan biridir.

Olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, odamzod dastlab Afrika, janubiy va janubi sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan. Keyinroq esa Yevropaning ichkari hududlariga kirib borgan.

Inson mehnat qilishi tufayli hayvonlar olamidan ajralib chiqib, uzoq rivojlanish bosqichini o'z boshidan kechirib, bundan 40-45 ming yil ilgari hozirgi zamon qiyofasidagi odamga aylandi.

Shu bilan antropogenez jarayoni tugab, nihoyasiga yetdi.

Kurs ishining dolzarbligi: Bu mavzu bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kurs ishi: II bob, xulosa va foydalanolgan adabiyotlaridan iborat. Men bu kurs ishining mavzusini ochib berish jarayonida hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning shakllanish jarayonini o'rganib chiqib, uni to'la yoritib berishga harkat qildim.

I.bob: Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlar topilgan manzilgohlar va ularning tavsifi.

1.1.Yevropada hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning topilgan manzilgohlari.

Olimlarning fikr mulohazalariga ko'ra odamning hamda garilla va shimpanzelarning yaqin umumiy ajdodi hisoblangan odamsimon qazilma maymunlar driopitek bundan 14-20 million yillar ilgari miotsen davrida, Janubiy Osiyo, Janubiy Yevropa va Afrikada tarqalgan¹.

Bulardan yana biri Darvin driopiteki bo'lib, uning qoldiqlari Avstraliyaning o'rta miotsen yotqiziqlaridan topilgan.

Odam ajdodiga yaqinroq maymunlardan yana biri ramapitek bo'lib, ulaening suyak qoldiqlari Shimoliy Hindistondagi Sivalika tepaligining quyi pliotsen yotqiziqlaridan topilgan. Ramapiteklarning qoldiqlari Sharqiy Afrikadagi Keniyadan topilib, u keniyapitek deb ham ataladi. Ular 1014 million yil ilgari yashagan mavjudotdir.

Gruziyaning Sagarji rayonidagi Udobnopitek. Ramapiteklarning yoshi 10-14 million yil ilgari yashagan bo'lsa Udobnopitek 16-13 million yil ilgari yashagan deb taxmin qilinadi. Odamning dastlabki kelib chiqish markazining manzili masalasiga kelsak, bu borada ko'plab nuqtai nazarlar mavjud.

Ulkan Osiyo qit'asi, shu jumladan, Janubi sharqiy Osiyo tabiatshunoslar e'tiborini tortdi. Ushbu mintaqalarda topilgan sodda odamsimon mavjudotlar- gominidlarning qazilma qoldiqlari misli ko'rilmagan topilma bo'lib, odamning Osiyodan kelib chiqqanligiga bir dalil hisoblanadi.

Hayot evolutsion rivojlanishining oliy darajasi bo'lgan odamning shakllanishi ham noyob jarayonlar ta'sirida ro'y bergan. Shulardan biri taxminan 15 million yil muqaddam primatlarning ajdodlari zich yashagan Afrika qit'asining shimoli-sharqida uran rudasining boy konsentratsiysiga ega bo'lgan qatlamlarning ochilishiga olib kelgan ulkan yoriq Afrika rifti yuzaga

¹ Kabirov A. Ibtidoiy Jamiyat tarixi. T:2005. b:34-35.

keldi. Sayyoramizning turli mintaqalarida topilgan shakli va rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi minglab suyak qoldiqlari qadimgi odamlarning evolutsion rivojlanishi natijasida paydo bo'lganligiga shubha qoldirmaydi².

Markaziy va janubiy Yevropa ham tabiiy sharoiti jihatidan eng qadimgi odamlarning yashashi uchun qulay bo'lgan.

1907-yilda Germaniyaning Geydelberg shahri va Mauer qishlog'i yaqinidan pitekanthrop va sinantropga zamondosh bo'lgan odam suyaklari topilgan. Bu olimlar tomonidan "Geydelberg odami" deb nomlangan. Geydelberg g'oridan suyak qoldiqlari topilgan bo'lsada, tosh qurollari topilmagan bo'lsada, bu odamlar mehnat qurollari yasash qobiliyatiga ega bo'lgan degan farazlar mavjud.

1958- yilda Fransiyaning Vallon g'oridan hayvon suyaklari, tosh qurollar va ularning parchalari topilgan.

Vengriyaning poytaxti Budapesht shahri yaqinidagi Verteshsellest, Chehiya poytaxti Praga shahri yaqinidagi Пржезлятитца degan joydan arxantropning tishi, qadimgi hayvonlarning suyaklari va oddiy tosh qurollar topilgan³.

So'nggi ma'lumotlarga asoslanib faraz qilinishicha Yevropa arxantropi 2 mln bilan 100 ming yil oralig'ida yashagan ekanlar. Ammo Yevropa kishilikning vatani bo'lmagan.

Bu yerga odamlar Afrikadan kirib kelganligi haqida ma'lumotlar bor. Arxantropning yashash manzillaridan turli tosh qurollar ham topilgan. Ular yovvoyi hayvonlar qurshovida yashaganlar.

Hayot uchun kurash davomida odamning o'zi ham, tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi. Hozirgi ko'rinishdagi odamlarning paydo bo'lishi Solyutre, Madlen, Orenyak davriga to'g'ri keladi⁴.

Taxminan 25-30 ming yil muqaddam odamlar ancha takomillashgan kesuvchi, arralovchi va parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan.

² Inetnet ma'lumotlari: www.Википидия

³ Bobobekov A. "Ibtidoiy jamiyat tarixi". (Ma'ruzalar matni)

⁴ Internet ma'lumotlari: www.Википидия.

Insonning takomillashib borishi so'nggi paleolitga kelib homo sapiensni(aql-idrokli) odamni vujudga keltiradi.

Fanda uni shuningdek (yangi odam) yoki kromanyon odam deb ham aytishadi.

Paleolit odami chaqmoqtoshlarni bir- biri bilan urish yoki yog'ochni – yog'ochga ishqalash orqali sun'iy olov olishni o'zlashtirganlar.

1856 yil esa Germaniya Federatif Respublikasining Neandertal vodiysidagi Dyusseldorf shaxri yaqinida joylashgan Filgafer g'oridan yer qazish ishlari vaqtida odamning bosh suyak qopqog'i va skletining bir qancha suyaklari topildi. Mazkur suyaklari Neandertal vodiysidan topilgan uchun joining nomi bilan ataladi.

Ularfanda qadimgi odamlar deb ataladilar. Yer yuzining turli burchaklaridan topilgan neandertal odamining kalla suyagi, skleti va boshqa a'zolarining suyak qoldiqlarini xar tomonlama chuqur o'rganilishi , ularning tashqi qiyofasini tiklash imkoniyatini berdi. Neandertallarning tashqi ko'rinishi ko'p jixatdan xozirgi odamlarga yaqin bo'lgan. Bu xol miya qutisining sig'imi xozirgi odamnikiga barobar ekanligini ko'rsatadi. Lekin ularning bosh miyasi, xususan muyasining peshona qismi birmuncha sustroq rivojlangan va oddiyroq tuzilgandir.

Neandertal tishlarimkuchli ildizli, katta va qattiq bo'lib, oziqni xususan go'shtni chaynash uchun moslashgandir. Tnasining uzunligi, bo'yi basti jixatidan ular zamonaviy odamlardan orqada turgan albatta. Ularning bo'yi 155-160 sm bo'lgan. Lekin ularning skleti xozirgi zamon odami skletiga qaraganda baquvvatroq bo'lib, tashqi tuzilishi ko'proq rivojlangan. Bu xol ular muskulining kuchli bo'lganligidan darak beradi.

Neandertallarning umurtqa pog'onasi zamonaviy odamlarniki singari bo'lmay biroz bukilgan bo'lib, oyog'ining bolder suyaklari son suyaklariga nisbatan kaltadir. Bu xol ularning yurish va yugirishda u qadar epchil chaqqon bo'lmaganliklarini ko'rsatadi. Xullas neandertallarning tashqi ko'rinishida maymunga xos bo'lgan ba'zi bir ibtidoiy belgilar mavjud bo'lib, ular xali xozrgi odami darajasiga yetib kelmagan edi. Ular jismoniy jixatdan xozirgi zamon kishisiga bevosita shart – sharoit tug'durgan taraqqiyotning pitekantrop va sinantropidan so'ngi bosqichda turadi.

Lekin ular arxantroplarga nisbatan ancha ilgarilab ketgan edilar. Bu ularning mexnat quollarining xili vazifasida xam ko'zga tashlanadi . Neandertallar past bo'yli kaltaqay kuchli muskulli biroz son bukchaygan katta boshli iyaklari sezilarsiz bo'lib burinlari oldinga cho'chayib chiqib turgan.

Eng dastlabki "Ishbilarmon odam" ning asta – sekin rivojlana borishi oqibatda neandertal tipidagi kishilar vujudga kela boshladi. Odam biologic jixatdan rivojlanayotgan ekan, asta - sekin kamolot sari qadam tashlayotgan ekan, ularning yashash tarzi xam o'zgarib brogan. Mazkur o'zgarishlar o'sha davr kishilarining mexnat quollarida xammadan avval ko'zga tashlandi.

1.2.Osiyodagi hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning topilgan manzilgohlari.

Osiyoning janubiy, sharqiy, janubi- sharqiy va O'rta Osiyo qismi ham eng qadimgi odamlarning yashashlari uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lgan, hudud bo'lganligi bilan ahamiyatlidir.

1890-1891-yillarda golland shifokori E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orolidagi Trinil degan joy yaqinidan pitekanthrop(yunoncha " pitekos"- maymun, "antropos"- odam) suyak qoldiqlari (bosh, bolder suyaklari va ikkkita jag' tishi) topilgan. Bu qazilma odamga Pitekanthrop deb nom berganlar.

Olimlarning fikriga ko'ra Dyubua pitekantropi 800-ming yil ilgari yashagan bo'lsa, Indoneziyaning Yava orolidagi Mojekertodan topilgan pitekanthrop bola suyagining qoldiqlari bundan 1 mln. 500-1mln. 200 ming yil ilgari yashagan bo'lsa kerak deb taxmin qilinadi.

Pitekanthroplarning makonlari va qurollari ilk bor Yava orolidan topilgan. Bular fanda arxantroplar deb ataladi⁵.

Arxantrop'larga mansub qazilma odamlarinig makonlari va mehnat qurollari Xitoyning CHjaukautyan degan g'oridan kanadalik D.Blek va xitoylik (Pen-Ven) Chjun kabi olimlar tomonidan topilgan.

1963-1964- yillarda esa xitoylik arxeologlar Pekin shahridan 900 km janubi- g'arbda Xuanxe (Sariq daryo) soxilda joylashgan Lantyan degan mavzedan sinantropga mansub makondan suyak va tosh qurollarning qoldiqlarini topganlar. Sinantrop odamiga mansub makonlar Xitoy janubi va Vyetnamdan ham topilgan.

Xitoydan topilgan Sinantropning yoshi 500-600 ming yilga teng bo'lib olimlarning fikricha xuddi shu paytda odamlar tabiatda mavjud olovdan foydalanishni o'zlashtirganlar⁶.

⁵Bobobekov A. " Ibtidoiy jamiyat tarixi." (ma'ruzalar matni)

⁶ Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. T: 2005. b: 43-44.

O'zbekiston hududida ham arxeologik hamda paleontologik tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Bu tadqiqotlar hozirgi zamon tipidagi odamning tadrijiy rivojlanishi va shakllanish jarayonlarida O'rta Osiyo mintaqasi, xususan O'zbekistonning roliga yangicha qarash imkonini berdi.

Bundan 75-yil muqaddam 1938- yilda Boysun tog'laridagi Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bola suyaklari muste davrining xrstomatik yodgorligi hisoblanadi⁷.

2003-yil yozda Toshkent yaqinidagi Obiramat paleolit davri manzilgohida qazish ishlari olib borilayotganda fan uchun ajoyib bir hodisa ro'y berdi. Kamida 50ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamning suyaklari topildi. Bundan tashqari bu yerdan ohak toshli va chaqmoqtoshlardan yasalgan nukleuslar, parrakchalar, o'tkir ichli sixchalar, qirg'ichlar, kurakchalar, uchirindilardan tayyor pichoqlar kovlab olingan bo'lib, ularning umumiy soni 30 mingdan ortadi.

Obirahmatdan topilgan kalla suyagi qoldiqlari hamda tishlarni o'rganish o'ta hayratbahsh natijalar berdi. Obirahmat odami neandertal bilan hozirgi zamon tipidagi odamning omuhta qiyofasini namoyon etadi, shu tufayli uning ko'pgina morfologik o'xshashi yo'q.

⁷ Internet ma'lumotlari: [www. Google.uz](http://www.Google.uz).

1.3. Afrikadagi hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning Manzilgohlari.

xx asrning 50-yillaridan boshlab Afrikaning sharqiy mamlakatlarida yirik arxeologik qidiruv ishlari olib borildi. Bu izlanishlar natijasida insoniyatning dastlabki vakillarining qoldiqlari Afrikaning Olduvay darasidan, Keniyaning Koobifor, Efiopiyaning Turkana ko'li, Omo daryosi soxilidagi joylardan topilgan. Bu odam qoldiqlari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog'idan topilgani uchun fanda "zinjantrop" odami nomini olgan. Olimlarning tekshiruvi natijalariga ko'ra bu "ishbilarmon odamlar" bundan 3-2 million yil ilgari yashaganlar.

Antropologlar fikricha ishbilarmon odamlar ba'zi jihatlari bilan zamonaviy odamlarga o'xshash bo'lganlar. Ular yog'och va toshdan qurollar yasab janub o'lkalaridagi mevalarni iste'mol qilganlar. Turli hayvonlar ovlab ovqat sifatida go'shtini homligicha iste'mol qilganlar⁸.

Afrikadan topilgan eng qadimgi odamlar dastlabki qazilma mavjudod, odamzod taraqqiyotining birinchi bosqichi edi. Odamlashishning ilk bosqichiga oid boy jihatlari tufayli o'tgan asr oxirlariga kelib Afrika odamzodning ilk vatani masalasida oldingi marraga chiqib oldi. Paleogenetiklar xx asr oxirlarida keng ko'lamdagi materiallar asosida barcha odamzod yagona turga va bu turning vatani Afrika ekanini isbotlab, ta'bir joiz bo'lsa, masalaga so'nggi nuqtani qo'ya bildilar⁹.

Tanzaniyaning "Laetoli" manzilgohida bundan 3.8 million yil muqaddam vulqon izida qolib ketgan katta yoshli odamsimon mavjudod va bolaning izlari topilgan. Bu izlar dastlabki odamlar paydo bo'lishidan ikki million yil ilgari ham ikki oyoqda yuruvchi mavjudotlar yashaganligidan dalolat beradi.

Bir guruh olimlar (Keppens, Ioaxanson, Taebl) Afrikadagi Qazishmalar chog'ida topgan "Lyusi". U Laetolida izi qolgan mavjudot hayot kechirgan davrda Efiopiyadan shimolda yashagan. Ayol tos suyagining tuzilishi uning

⁸ Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. T:2005.b: 44-45.

⁹ Internet ma'lumotlari: википедия.

ikki oyoqda yura olganini taxmin qilish imkonini beradi, biroq unig qo'l-oyoq va bo'g'im suyaklari bu avstrolopitekarni har vaqt ham ikki oyoqda yurmaganlar degan fikrga olib keladi. Ular ko'pincha daraxtlarga tirmashib chiqishgan. Ularning qo'llari odam qo'llariga o'xshab ketadi¹⁰.

Kenianing Olduvay va Kubifora manzilgohidan topilgan skletlar bilan birga ishlov berilgan tosh qurollar, shuningdek qurilgan boshpanaga o'xshash yashash manzili ham topilgan. Ana shu belgilar tufayli maskur tur Homo habilis- uquvli odam deb atalgan.

Homo habiles skletrlari janubiy Afrikadan Efiopiyagacha bo'lgan hududda topilgan, lekin Indoneziyadan topilgan ayrim qazilma skletlarni ham ular sirasiga kiritish mumkinligi ehtimoldan uzoq emas.

1970- yili Keniyadagi Kobbi-For degan joydan Olduvay davriga mansub tosh qurollar Kaliy Argon usuli bilan hisoblanganda 3.5-3 mln yil ilgari yashaganligi ma'lum bo'ldi. Bu tosh qurollar inson yaratgan eng qadimgi va dastlabki tosh qurollar bo'lib hisoblangan.

¹⁰ Philip L.Stein. Bruce M. Rowe. "Physical anthropology". 1996. b:199-200.

II-bob: Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning vujudga kelish Omillari.

2.1. Hozirgi qiyofadagi odamlarning vujudga kelishida tabiiy omillar ta'siri.

Kaynazoy davri 60-70 million yil davom etgan . Uchlamchi davr oxiriga kelib, hozirgi o'simlik va xayvonot dunyosi shakllana boshlaydi. Uchlamchi davr oxirida paydo bo'lgan mamont , darlanda tishli yo'lbarslar, katta tishli bug'ular va boshqa hayvonlar to'rtlamchi davr mobaynida qirilib ketadi va bu davrda Yevro Osiyo va shimoliy Amerikani kattagina hududlarini to'rt marta muzlik qoplagan.

Natijada shu hududlarda yashaydigan hayvon va o'simliklar sovuq natijasida qirilib ketadi , lekin shu bilan bir qatorda muz oldi hududlarida o'simliklarning va hayvonlarning ba'zi bir turlari yashab qolishadi .

Muzlik davri tufayli jahon okeanlarining sathi 60-90 metrgacha pasaygani natijasida Yevropa bilan Angliya Osiyo bilan Shimoliy Amerika o'rtasida quruqlik hosil bo'ladi. Bu quruqlik orqali o'zaro aloqalar vujudga kelgan. Masalan, hayvonot va o'simlik dunyosining migratsiyasi uchun yahshi imkoniyat tug'ilgan.

Kaynazoy davrining to'rtlamchi bosqichiga kelib yer yuzida insonning ilk ajdodlari vujudga kela boshlaydi. Shuning uchun ham to'rtlamchi davrning antropogen davri deb ham atashadi.

To'rtlamchi davr o'z navbatida eoplastatsion va plestatsion , golotsen bosqichlariga bo'linadi. To'rtlamchi davrda yerda dunay gyuns, mendel va vyurn kabi muzliklar davri bo'lib o'tadi. Bular o'z navbatida gyuns-mindel , mindel-ress va ress- vyurn kabi muzliklar aro davrlarga bo'linadi.

To'rtlamchi davr 3-2 million yillik davrni qamrab oladi¹¹. Roginskiyning ma'lumotlariga qaraganda bu davrda iqlim sharoiti va ochlik avjga chiqqan deb taxmin qilinadi . Fransuz antropologi A.Vallua tekshirishlari qadimgi odamlar orasida o'lish hollari juda ko'p bo'lganligini ko'rsatadi .

Insoniyat hayvonot olamidan ajralib chiqib , antropogenez jarayonini bosib o'tadi bu shubhasiz juda katta davrni o'z ichiga oladi. O'z-o'zidan savol

¹¹ Рогинский Я.Я. Левин М.Г.,” Антропология.”. М. 1978 В-139-140.

tug'iladi: mazkur davrda odamlar kollektivi qanday bo'lgan ? – Ma'lumki eng qadimgi odamlarning ajdodlari qazilma maymunlar, avstrolopiteklar poda yoki gala bo'lib yashaganlar ¹²

¹² Алексеев В.П., Першиц А. И. “История первобытного общества” . М. 1999. В-145-150.

2.2. Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari.

Odam evolutsiyasi haqida “ tosh bitiklari “ yer qarining turli qatlamlarida saqlangan qadimgi makonlar, jonzotlarning topilma qoldiqlari dalolat beradi.

Antropogenez – odamning kelib chiqishi va rivojlanish masalalari bilan shug’ullanib, uning hayvonlarning dunyosida tutgan o’rniga baho berib, hozirgi odami vujudga kelishining shart sharoitlari va sabablarini o’rganadi. Antropogenez antropologiyaning bir tarmog’i hisoblanadi. Insoniyat o’z rivojlanish bosqichlarida quyidagi pog’onalarni bosib o’tgan : Avstrolopitek, zinjanthrop, pitekanthrop, sinantrop, kromanyon ¹³.

Antropogenez jarayonining xarakatga keltiruvchi kuchlar: Darvin insoniyatning kelib chiqish jarayonidagi biologik qonuniyatlarning insonga ta’sirida asosiy e’tiborni jinsiy tanlovga qaratgan. Uning nazariyasiga muvofiq insonning jismoniy shakillanishining o’ziga xosligi primatlar bilan solishtirganda farqlanadi.

Darvin nazariyasiga muvofiq individlarni tanlash natijasida shakllangan qaysiki o’zining alohida ustunligi bilan ajralib turuvchilarni tanlashgan. Ular insoniyatni rivojlanishida burilish ta’sirini ko’rsatgan. Darvin bunda hozirgi zamon insonidagi demorfizimni ko’rsatgan bu paytda insonni nutqini paydo bo’lishi qaysiki ayolniki boshqacha erkakniki boshqacha murakkab bo’lgan¹⁴.

Insonga eng yaqin bo’lgan guruh bu driopitek maymunlari hisoblanadi. Ularning qoldiqlari G’arbiy Yevropa, Osiyo va Afrikadan topilgan. Ularning ichida bir necha turlari ajralib turadi. Aniq morfologik o’ziga xoslik bu oila yoki jamoa. Driopiteklar shunday primatlarki hozirgi zamonaviy shimpanzelarga yaqin. Ularga xos bo’lgan morfologik belgilar qoziq tishlar bilan kesuvchi tishlarni orasini kichrayganligi shunday qilib driopiteknlarni insonlarga yaqinlashganini ro’rish mumkin.

Dunyodagi tabiiy o’zgarishlar inson faoliyati natijasida kelaib chiqadi. Ayniqsa bu Vladimir Vernaticheskiiy tomonidan ilgari surilgan . U o’z ishi

¹³ Борисковский П.И “Кишиликининг энг кадимги хаёти” . Тош. 1959. В-33-34.

¹⁴ Алексеев В.П., Першиц А. И. “История первобытного общества” . М. 1999. В-104-105.

faoliyatida inson faoliyatini yer sayyorasini ko'rinishini o'zgarishiga qanday katta masshtablarida ta'sir qilishini uning tashqi qobig'iga ko'rsatgan ta'siri haqida yozadi. Darvinning fikricha maymunlar insonga yaqin bo'lsada o'sha davrda yashayotgan biron bir vakili insonning ajdodlari sifatida sko'rilishi kerak emas. Hozirgi zamonaviy dunyo qarashlar uning dunyo qarashiga suyanagan holda olib bordiki, eng yangi uslublarda genetik mehanizmni o'rganish jarayonida insonni shimpanze bilan juda ko'p o'xshashliklari borligi isbot qilindi¹⁵

Primatlar guruhlarini klassifikatsiyalashda gominidlar oilasi ajralib turadi, qaysiki, ular hozirgi zamonaviy inson bilan, ularning ajdodlarini bo'g'lab turuvchilardir. Bu oilani vakillari uchun tegishli bo'lgan ko'rinishlardan bittasi miya qutisining kattaligi, uning murakkabligi, gavdasining tik tutishi, to'rt oyoqlab emas, ikki oyoqlab yurishi, kaftdagi bosh barmoqning ajralib turishi ko'p seziladi.

Anatomik nuqtai nazrdan qaraydigan bo'lsak, hozirgi qiyofadagi insonlarning ajdodlari boshqa primatlardan ajralib turadi. Sovet va G'arbiy Yevropa mutaxassislarining ishlarida oila tarkibida bitta urug' ajratiladi. Insonning homo urug'i avlodi qaysiki hozirgi zamon odamini shakllari topilgan. Lekin bu dunyoqarash to'g'ri deb topilmagan.

Chunki homo urug'inig ikkita turi bo'lib, hozirgi zamonaviy odamning ko'rinishi yoki aqlli odamdir. Ma'lumki antropogenez jarayonining shakllanishi ya'ni zamonaviy odamning shakllanishi bir necha bosqichlarga bo'linadi. Ya'ni bundan 40-35 ming yil oldin zamonaviy inson va uning qadim ajdodlari o'rtasidagi paydo bo'lgan degan fantastic qarashning to'rt bosqichi mavjud.

1. **Homo avstrolopitikus**
2. **Homo habilis**
3. **Homo erectus**
4. **Homo sapiens**

Antropogenez jaroyoni insoniyat tarixida inson paydo bo'lganidan to so'nggi poleolit davrining so'ngigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Antropogenez

¹⁵ Аллескеев.В.П.Першиц.А.И. “История первобытного обществою”. М.2001. В-108-110.

jaroyonida inson jismoniy jihatdan tashqari, morfologik va ongi jihatidan ham o'zgarib turgan. Antropogenez jarayoni turli hududlarda har-xil ko'rinishlarda bo'lib o'tgan. Antropogenez jarayoni hozirgi kunda ham o'z yechimini topmagan muammolardan biridir¹⁶.

Homo habilis – uquvli odam. Homoga mansubligi shubhasiz bo'lgan ilk turlaridan biri. Uning ilk skeletlari Keniyaning Olduvay va Kubifora manzilgohida 1,6 dan 1,5 million yilgacha bo'lgan qatlamlardan boshpanaga o'xshash yashash manzili ham topildi. Ana shu belgilar tufayli maskur tur *Homo habilis* skeletlari janubiy afrikadan Efiyopagacha bo'lgan hududda topilgan, lekin Indoneziyadan topilgan ayrim qazilma skletlarni ham ular sirasiga kiritish mumkinligi ehtimoldan uzoq emas.

Homo erectus (tik turuvchi odam) 1,6 million yil muqaddam yashagan. U chamasi *Homo habilis*ning o'rniga kelgan.

Maskur tur vakillari pitekanthroplar (maymun odam) deb ham yuritiladi. Bular chinakam tik yuruvchi jamoa bo'lib yashaydigan va mehnat qurollari yasovchi odamlardir. Ular yevropa va Osiyo bo'ylab tarqalishgan¹⁷.

Pitikanthrop maymun odamining suyak qoldiqlari 1891- yil Yevgeniy Dyubua tomonidan Yava orolining Tripil yaqinidan topilgan tadqiqotlar natijasi pitikanthropni hozirgi zamonaviy qiyofadagi odamlarni ajdodi deb hisoblashadi 1895-yilning dekabrda, Berlin antropologiyasida, Etnologiya va tarix jamiyatida Dyubua topgan qoldiqlarning xulosasini chiqarish uchun konferensiya bo'ladi.

Bu suyak qoldiqlarining ya'ni miyya qutisini tekshirib ko'rib odamning ajdodi deb aytishga shubhalanganlar. 1930 – yilda Van Kenigsvald yaxshi saqlangan pitikanthrop qoldiqlarini topgan. Mana shu topilma topilgandan so'ng pitikanthropning homoga kirishi shubxasi yo'qolgan¹⁸. Pitekanthropning bo'yi 167-170 smga barobar bo'lgan uning peshonasi tor, qiyalama lekin, odamsimon maymunning peshonasiga qaraganda bir muncha keng bo'lgan. Ko'z usti suyaklari bo'rtib chiqqan, miyasining hajmi 850-950 sm³ teng kelgan.

¹⁶ Internet ma'lumotlari:www. Википедия.ru

¹⁷ Philip Stein, Bruce Rowe. "Physical Anthropology" 1996. B-328-329.

¹⁸ Борисковский П.И "Кишиликининг энг кадимги хаёти ". Тош. 1959. B-22-29.

Kishi diqqatini pitikantrop miyasidagi nutqning harakat markazi joylashgan pastki peshona yo'llarining maymunlarnikiga qaraganda ancha kuchli rivojlanganligi hammadan oldin o'ziga jalb qiladi. Demak pitikantrop ma'lum darajada so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgan deb o'ylashimiz mumkin. U tik holda ikki oyoqlab yurgan. Uning badani qalin tuklar bilan qoplangan bo'lgan.

Sinantroplar – yoki boshqacha aytganda “ qadimgi xitoy odami “ ham Yava pitikantropi kabi hammaga ma'lumdir. Sinantrop qoldiqlari Xitoyning shimolida Chjoukoutyan qishlog'i yaqinida Pekindan taxminan 50 kilometr janubi g'arbda topilgan. Bu yerdan 1927-37 yillarda Pey Benchjun boshchiligidagi Xitoy tekshiruvchilari 40 dan ortiq Sinantropga tegishli suyak qoldiqlarini topganlar.

Sinantrop o'zining jismoniy taraqqiyoti jixatidan Pitikantropga ancha yaqin turgan, ammo Pitikantropga nisbatan ancha rivojlangan¹⁹.

Sinantroplarning bo'yi 144-156 sm bo'lib, peshonasi past qiya bo'lgan. Ularning miya qutisining hajmi 1050-1200 sm³ ga teng edi. Demak , sinantrop miya qutisining hajmi pitikantropnikidan katta, lekin hozirgi zamon odami miyya qutisidan kichikroqdir. Shunday qilib, sinantroplar bundan 400-500 ming yil ilgari yashab o'tgan bo'lib, Mindel muzligi davrining ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va u eng qadimgi qazilma odam vakili hisoblanadi. 1963-1964 yillarda Xitoy arxeologlari pekindan 900 kilometr janubi- g'arbdagi Lantyan degan joydan Lantyan sinantropi deb atalgan qadimgi qazilma odam qoldig'ini topganlar²⁰.

¹⁹ Борисковский П.И “Кишиликининг энг кадимги хаёти” . Тош. 1959. В-29-37.

²⁰ Kabirov A.” Ibtidoiy jamiyat tarixi.”. Tosh: 2005. В-42-43.

Xitoydagi sinantrop qoldiqlari topilgan g'or



Lantyan sinantropi ko'p jixatdan chjoukoutyandan topilgan sinantrop'larga yaqin bo'lib, Xitoy odamlarining faraziga ko'ra ular bundan 500-600 ming yil ilgari yashagan ekanlar. Xitoyning janubiy markaziy Vyetnamning shimoliy qismida sinantrop singari ibtidoiy odamning suyaklari topilgan. Shunday qilib Xitoy Osiyodagi eng qadimgi odamlar paydo bo'lgan mamlakatlardan biri ekan.

Hozirga qadar topilgan homo erektus – tik yuruvchi odam skeletining eng yaxliti “Turkanalik bola” hisoblanadi. Bu topilma Afrika qit'asi Keniya respublikasi Turkana ko'li yaqinidan topilgan. Ushbu turdagi odam Yevropa va Osiyodan ham topilgan va keng tarqalgan deb e'tirof etiladi. Homo erektuslar bundan 1,5 million yil avval yashagan. Homo erektuslarning miya qutisi hajmi esa taxminan 1100 kub santimetrni tashkil qiladi.


Homo sapiens neanderthalensis- bundan 230-240 ming yil avval Yevropa va g'arbiy Osiyoda Isroildan to O'zbekistongacha bo'lgan hududlarda, ehtimol, Shimoliy Afrikada yashagan odamlar turi. Neandertallarning skeletlari ilk bor 1856-yilda Germaniyaning Dyuseldorf shahri yaqinidagi Neandertal darasidan topilgan.

Neandertallarning bo'yi o'rtacha 165 sm bo'lgan. So'nggi neandertallar bundan qariyb 24 ming yil muqaddam sovuqda qirilib ketgan. Neandertal nomi nemis teologi va kompozitori Ioxam Neandr sharafiga qo'yilgan. Buni 1858-yilda Shaafgauzen neandertal atamasini fanga olib kirdi.

Janubiy Yevropa, Yaqin Sharq va O'zbekistongacha bo'lgan hududda neandertallar tarqalgan. Neandertallar Yevropada Germaniyadan, Fransiyadagi La-Shapel- O-Sen g'ori Qirimdagi Kiik - Koba g'ori, Gretsiyadagi pelepones Kavkazdagi Mezmay g'oridan, Isroildagi Karmel, Iroq Kurdistonidagi Shanidar g'oridan ham topilgan. Neandertallarning bo'yi 140 sm bo'lgan miya qutisining sig'imi 900-1800 sm³ gacha bo'lib, o'rtachasi 1380-1400 sm³ ga teng ekanligini hisobga olsak , ularning kallasi katta ekanligiga qanoat qilamiz. Neandertal odamlari kalla qutisining shakli birmuncha cho'zinchoq bo'lib, peshonasi qiya, boshining tepa qismi yassi, past bo'lishi ular uchun harakterlidir. Shu bilan birga ularda qosh ustidagi qabartma ancha oldinga turtib chiqqan. Neandertal odamlarining burun va yuqori jag' suyaklari juda kuchli rivojlangan. Ularda pastki jag' ham yahshi rivojlanmagan bo'lib, u juda baquvvat, lekin engak – dahan u qadar taraqqiy etmagan edi.

Neandertallarning tishlari kuchli, ildizli , katta va qattiq bo'lib oziqni xususan go'shtni chaynash uchun moslashgandir ²¹.

²¹ Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. Tosh: 2005. B-52-53.



Neandertallarning suyak tuzilishi shuni ko'rsatadiki ularning bolalarning ko'rinishi balog'atga yetganlarnikidan sal kichkina . Ularning umr ko'rishi 29,9 yilni tashkil etgan ular gapira olishgan. Neandertallarning umurtqa pog'onasi zamonaviy odamlarniki singari bo'lmay biroz bukilgan bo'lib, oyog'ining boldir suyaklari son suyaklariga nisbatan kaltadir. Bu hol ularning yurish va yugurishda u qadar epchil , chaqqon bo'lmaganliklarini ko'rsatadi. Xullas neandertal odamlarning tashqi ko'rinishida maymunga hos bo'lgan ba'zi ibtidoiy belgilar mavjud bo'lib, ular hali hozirgi zamon odami darajasiga yetib kelmagan edi.

Kramanyonlar – hozirgi qiyofadagi odamlarning ajdodi hisoblanadi. Ular bundan 30 ming yil muqaddam Yevropaga kelib Neandertallar o'rnini egallaganlar. Kromanyonlar bundan 80 ming yil oldin Yaqin sharq yoki

Osiyoda paydo bo'lgan. Ayrim fikrlarga ko'ra esa, ular Yevropaga sharqiy Afrikadan kelgan bo'lishlari mumkin²².

Kromanyonlar saxnaga chiqishyapti – 1886-yilda Lez Ezi qishlog' yonida kromanyon aholisi joylashgan cho'qqilari ostida uch erkak, ayol va bolaning suyak qoldiqlarining topilmasi fanga oxirgi neopaleolitik kromanyon tabaqasi haqida birinchi tushunchani berdi. Ayniqsa qariya erkakning skeleti mashhur bo'lib, uni odatda kromanyonlik chol deb nomlashadi U o'sha tabaqaning hamma belgilari mujassamlashgan skelet hisoblanadi. Bir necha vaqtlar mobaynida shunga o'xshash odamlarning topilmalari har xil mamlakatda topilgan²³.

Kromanyonlar yolg'iz bo'lishmagan : Kromanyonlarning skeletidan tashqari ularning jismoniy jixatdan sezilarli darajada ajralib turuvchi odamlarning suyak qoldiqlari topilgan. Ba'zi birlari menton atrofidagi sun'iy g'orlarda topilgan shu yerda 8,5 metrlik chuqurlikda yosh yigit va yoshi katta ayolning buralib yotgan holatdagi skeleti topilgan.

Tuzilishi belgilari bo'yicha ikkala skelet ham negroidlarga tegishli deb aniqlangan. Olimlarning tahminlariga ko'ra ular Grimaldi rarasiga tegishli bo'lib, so'ngi paleolit davrining boshlaridayoq Afrikadan Janubiy Fransiya va Italiyaga kirib kelishgan.

Boshqa bir skelet esa kromanyonlardan farq qiluvchi 1888 – yilda Shanselyat qishlog'i, Raymondagi osma qoyalar tog'idan topilgan bo'lib, bu Fransiyaning Pregio shahriga yaqin. Bu yerda kromanyonlarning va grimakdiklardan farq qiluvchi erkak skeleti topilgan. Bu shanselyat tabaqasiga tegishli bo'lgan insonlarning skeletlariga qaraganda ularning bo'ylari judayam uzun bo'lmagan²⁴.

Ularning bo'ylari 150 sm atrofida bo'lgan ularga harakterli bo'lgan narsa judayam uzun va baland bosh va keng yuzli bo'lishgan. Ularning yanoq suyaklari turtib chiqqan, ko'z chanoqlari katta to'rt burchaksimon, qo'l suyaklari

²² Internet ma'lumotlari: www.Википедия.ru

²³ Автор составитель КЮТ.Е Древние Люди. «Финекс» - Санкт-петербург.2007. В-150.

²⁴ Автор составитель КЮТ.Е Древние Люди. «Финекс» - Санкт-петербург.2007. В-151-152.

nisbatan uzun va og'ir bo'lib qayski ular mushaklarini juda kuchli bo'lganligi haqida darak beradi.

1889-yilda Leon Universitetining professori Leon Testyu shunga e'tibor qaratdiki Shanselyat skelatleri zamonaviy eskimoslarning skelatlariga o'xshash bo'lgan.

Hozirgi jismoniy tipdagi odam neantroplar “yangi odamlar” yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan. Neantroplo'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi odamlardan sifat jihatidan, tubdan farq qilgan.

Shuning uchun ham uni Homo- sapienslar deb atashgan. Ular tashqi qiyofasi bilan hozirgi qiyofadagi odamni eslatadi. Neantroplar bundan 40-35 ming yil muqaddam so'nggi tosh asrining boshlaridan paydo bo'gan. Bu tip odam miyasining hajmi 1400-1560 santimetr kubga teng bo'lib peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha baland bo'lgan²⁵.

Ularda miyaning eng progressiv uchastkalari ya'ni boshning tepa qismi ikki chekka, ayniqsa peshona kattalashgan edi. Neantrop odamlarning tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lgan. Ularda qosh-qovoqusti qabartma suyagi yo'q bo'lib, pastki jagida zamonaviy odamlarniki kabi do'mboq iyagi bo'lgan.

Bu davr kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odaminiki singari bo'lib, ular to'ppa –to'g'ri yurganlar. Ularning qo'l –oyoqlari, tana tuzilishi bir-birlariga mutanosib bo'lib, tez chopa olgan. Agar neantrop bilan hozirgi zamon odaminin suyaklari bir-biriga qiyos qilinsa, ularning jismoniy tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Shunday qilib qadimgi paleolitning boshlariga kelib, neandertallardan hozirgi zamon jismoniy tipdagi odam paydo bo'ldi. Shu bilan antropogenez jarayoni asosan tugallandi, odam o'z biologik rivojlanishini yakunladi.

²⁵Алексеев.В.П. Становление человечества. Москва.1984. стр-75-78.

2.4.Hozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning tashqi ko'rinishi, xo'jaligi va mehnat qurollari.

Hozirgi qiyofadagi zamonaviy odamlarning morfologik farqi bir tarafdun uni ajdodlari bilan bog'liqligi, ikkinchi tarafdun kelajak avlodi bilan bog'liqligidir. Shu faktlardan kelib chiqib, Sovet tadqiqotchilarining fikricha antropogenez jarayonida ikkita sakrash sodir bo'lgan. Bittasi gominidlar oilasining shakllanishida, ikkinchisi hozirgi zamon insonining shakllanishida .

Birrinchi sakrash: insonning o'ziga xos bo'lgan morfalogiyasi: til va aqlni paydo bo'lishi bilan mos keladi.

Ikkinchisi: inson bo'lib shakllanib bo'lgan insonlardan shakllangan insonlar²⁶.

Avstrolopiteklar yerda yashashga moslashgan mavjudod bo'lib, ikki oyoqlab yurgan. Ular hamma odamsimon maymunlardan farq qilgan va ayni vaqtda odamga yaqinlashib qolgan edi. Ammo ularning oyoq- qo'llarida ushlagich organlari saqlanib qolgan bo'lib, u hali tayanch organi sifatida to'liq shakllangan emas edi. Uning barmoqlari ancha kuchli, bo'g'inlari taraqqiy etgan bo'lib, qamrab olish va mahkam tutish xususiyati bilan har qanday odamsimon maymunlar bo'g'inidan farq qilgan. Ammo bo'g'inlarda odamsimon maymunlarning bo'g'inlariga o'xshash xususiyatlar oz emas edi. Jag' suyaklari katta bo'lib, lod tomonga turtib chiqmagan oziq tishlarning kichikligi, tishlar orasidagi bo'shliqning bo'lmasligi, ularni odamsimon maymunlardan keskin ajratib, odam bilan yaqinlashtirgan edi. Ba'zi olimlar avstrolopiteklarni odam qatoriga qo'shsa, ba'zilar uni odamsimon maymunga mansub deb hisoblaydilar.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, avstrolopiteklar insonlar dunyosiga emas, balki hayvonot olamiga mansub mavjudot edi. Jag' suyaklari, tishining tuzilishi, hamda ular tomonidan o'ldirilgan pavian va boshqa sut emizuvchi hayvon suyaklarining topilishi, avstrolopiteklarni boshqa maymunlardan farq qilib, go'sht bilan ovqatlanaganliklarini ko'rsatadi²⁷.

²⁶Алескеев.В.П. Першиц. А.И. "История первобытного общесто". М. 2001. В:110-118.

²⁷ Kabirov A." Ibtidoiy jamiyat tarix"i. T: 2005. B:36-37.

Avstrolopiteklar go'sht topish uchun eng avvalo antilopalar va panyanlarni ov qilishgan. Ular ovda muvofaqiyatga erishish uchun to'da-to'da bo'lib ov qilishgan. Ov jarayonida ular har qurollar, gurzilar, antilopa suyaklaridan foydalanishgan. Tuyoqli hayvonlarni ot va jirafalarni go'shtlarini nimalashda yelka suyaklaridan foydalanishgan. Biroq bunday predmetlarni maxsus tayyorlangan qurol deb atash qiyin.

Oxirgi paytlarda shunday ma'lumotlar topildiki, avstrolopiteklar juda oddiy va qo'pol mehnat qurollaridan foydalanishgan. Ularni qay tarzda ov qilganligi noma'lum. Professor Dartning fikricha, o'ldirilgan hayvonlarning bosh suyagidagi darslar tosh bilan urish natijasida kelib chiqqanligini qaysiki, ular yuqori yoki pastdan otilgan. Biroq bu usul ovning bitta elementi xolos.

Lekin ba'zi avstrolopiteklarning miya suyaklariga qarab aynan pleziantroplarga qarab shuni taxmin qilish mumkinki, ba'zi avstrolopiteklar kannibal bo'lishgan. Avstrolopiteklar taxminan, 900-500 ming yil ilgari O'rta pleystatsion davrida yashashgan²⁸.

Pitekanthroplar- Sola va Yave daryolari bo'ylarida katta vulqonlar yaqinida haqiqiy insonning ajdodlari, ibtidoiy jamoalar to'da bo'lib yashashgan. Eng mashhur va qadimgi namoyondalar bular pitekanthroplar hisoblanishadi. Ularning qoldiqlari 1891-1892-yillarda Trinil qishlog'I yonida doctor E.Dyubua tomonidan topilgan. O'zining tashqi ko'rinishidan pitekanthrop odamsimon maymunni ham eslatadi. Oldinga egilgan bosh qo'pol yuz kalta va keng burun peshonaning orqaga ko'tarilganligi, chakak suyagining ajralib turishi, ko'z osti kosasining chuqur kirganligidair.

Pitekanthroplarning kichik-kichik to'dalari ovqat qidirib bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishgan. Ularning ozuqalariga nafaqat tropic daraxt va butali mevalar balkim o'simliklarning shirin ildizlari ham ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

Qo'l kelganda ular mayday sut emizuvchi hayvonlarni yiyishgan. Agar o'laksa eskirib qolmagan bo'lsa ulardan ham ozuqa sifatida foydalanishgan.

²⁸ Автор составитель. Е.Кют." Древние люди". Санк-Петербург.2007. В:154-155.

Pitekanthroplar oddiy turmush tarzini olib borishgan, lekin tabiat bilan tinimsiz kurashishgan.

Ularning oyoqlari baqquvvat bo'lib, ularning gavdalarini tik tutishlari uchun yordam bergan. Ularning qo'llarini rivojlanishi faqatgina yurish uchun emas, boshqa ishlarni bajarish uchun ham mukkammalashganligi ularning gavda qismidagi eng katta o'zgarishga olib kelgan. Pitekanthroplar uchun qo'llar yashash uchun kurashda tayanch vazifasini bergan. O'z doirasida fikrlash va qo'l yordamida ular dunyoni zabt eta boshlashgan. Umuman olganda, insoniyat tarixi uni jismoniy, ma'naviy va madaniy rivojlanishi ulardan boshlanadi.

Ko'pgina belgilariga qarab, pitekanthroplar odamsimon maymunlarning miya suyagini eslatadi. Odam kallasi suyagi bilan solishtirganda, odam miya suyagiga nisbatan kichkina bo'lib, lekin odamsimon maymunnikiga nisbatan yirik hisoblangan. Odamsimon maymunning miya qobig'inig hajmi 400-500 kub santimetr, pitekanthropniki esa 800 ming kub santimetr bo'lgan.

Pitekanthropning miya shaklini ko'pgina tadqiqotchilar o'rganishgan. Ularning natijasiga qaraganda shuni aytish mumkinki, pitekanthropning miya qutisi odamsimon maymunnikidan ancha mukkammal bo'lgan. Peshonanig bo'rtib chiqqanligi ularni oldinga tashlangan qadamidir. Chap miya yarim sharining yiriklaigi unig o'ng qo'lini mukkammal ekanligidan darak beradi. Demak pitekanthroplar zamonaviy odamga o'xshab o'ng qo'l bo'lishgan. Pitekanthroplarning ko'rish va eshitish qobiliyati ham kuchayib borgan²⁹.

Shuning uchun pitekanthroplar Xitoyning qadimgi odami Sinantropga o'xshab insoniy nutqni o'zlashtira boshlagan. Buni uni topilgan miya qutisi ham isbotlashi mumkin, qaysiki, ong peshonasining pastki qismida chuqurchalar shakllangan. Bu qism nutq zonasi bo'lib brok markazi deb atalgan. Ernest Gekkelning taxminlariga qarshi pitekanthrop soqov bo'lmagan.

Sinantroplar-Xitoyliklarning ajdodlari Chjoukoudyanliklar(sinantrop) qoldiqlari bizni ajdodlarimizni rivojlanishini yoritishda katta rol o'ynagan. Ular olovni yaxshi bilishgan. Qazilmalarni topish paytida gulxanlar qoldiqlarining

²⁹ Автор составитель. Е.Кют. "Древние люди". Санк-Петербургю 2007. В:156-160.

topilishi hayratlanarli topilma hisoblangan. Aniqki sinantroplar hali olov yoqishni bilishmagan. Ular uni bexosdan yoki chaqmoq chaqini ketidan topishgan. Avval olovdan qo'rqishgan va undan qochib g'orlarga berkinishgan. Oovning shafqatsiz kuchi pasayib, chidab bo'lmas issiqni kuchi ketganda ular so'nayoygan olovga yaqinlashgan. Shunday qilib ular,sekin-sekin olovga o'rganishgan. Bir joydan ikkinchi joyga cho'g'larni tashishda ular suyaklardan foydalanishgan. Olov uchib qolmasligi uchun unga tinimsiz shoh shabba tashlashgan. Buning isboti 6 metrlik kul. Olovni tanish va undan foydalanish sinantroplar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki yirtqichlar olovdan qo'rqishgan³⁰.

Qorongulikda ular olovdan foydalanishgan. Keyinchalik ular go'shtni ham olovda qovurib yeyishgan. Va oxir oqibat iqlim sharoiti juda qulay bo'lmagan joylarda olov yordamida ular yashashga sharoit yaratishgan. Uzoq o'tmishdayoq olov inson uchun do'st, uni saqlovchi kuch bor.

Neandertallarning tashqi ko'rinishi- Ko'pgina suyak qoldiqlarining topilmalari neandertallarning ko'rinishi haqida ma'lumot yaratishga va hozirgi zamon odamidan farqini ajratishga yordam beradi. Eng sezilarli farq bu bosh suyakda ko'rinadi. Neandertallarning bosh suyagi odatda katta, orqaga ketgan, yassi peshona, ko'zining usti kattaligi alohida belgilaridir. Bosh qobig'i uzun va yapoloq, suyaklari yo'g'on va og'ir.

Agarda bosh suyakni yonidan qarasak, engakni oldinga chiqib ketganligini ko'rish mumkin. Shunday qilib hayvon bosh suyaklari bilan o'xshash jihatlari ham bor. Engakning yo'qligi odamsimon maymunga o'xshashligini ko'rsatadi³¹.

Ularning umurtqasi kaltaligi va og'irligi hozirgi zamon odamida esa ozgina egiluvchan bo'lib uni figurasini chiroyli va egiluvchan tutishga yordam beradi. Ularda umurtqaning do'ngilliklari sezilmaydi. Hozirgi zamon odamining umurtqasini bo'yin tarafida ulangan orqa muskullar o'tkir bo'yin ostida turadi. Neandertallarda bunda deyarli to'ppa-to'g'ri o'mrov sezilarli darajada bukilgan.

³⁰ Автор составитель. Е.Кют. "Древние люди". Санк-Петербургю 2007. стр 158-160.

³¹ Автор составитель. Е.Кют.»Древние люди» Санк-Петербург. 2007.Стр-155-158.

Tosi tor umurtqa bilan ulanishi boshqacharoq, son suyaklari kalta va uning oxirida katta epifezlar joylashgan.

Gavda suyaklari slindirik holatda. Boldir suyaklari orqaga qiyshaygan. Neandertallarning suyaklarini o'rganib chiqib, albatta ularning gavdasi chiroyli bo'lmaganini aytish mumkin. Yuz suyaklariga qarab, maymunning yuziga o'xshashligini aytish mumkin. Qalin va quyuq qoshlar tagida chuqur ko'zlar joylashgan. Sezilarli darajada yapaloq yuz, yo'gón va kalta bo'yin bo'lgan. Bosh suyagining qapqog'ini, quyuq sochlar qoplab, bo'yinlari ham sochlar bilan qoplangan. Butun gavda oldinga egilgan bo'lib, neandertallar erkagining bo'yi-160, ayollarniki -155 santimetr bo'lgan. Bunday qo'pol tashqi ko'rinish birinchi navbatda Gárbiy Yevropa neandertalistlariga xos bo'lib, ular oxirgi muzlik davrida yashashgan. Neandertallarning tashqi ko'rinishi boshqacharoq bo'lib, bosh suyagidagi peshonasi chiqqan, engaklari ajralgan holata bo'lgan.

Neandertallarning hayoti oson kechmagan. Ular oltin asrda yashashmagan. Doimiy qiyinchilik, tabiat bilan bo'ladigan kurashlarda umri o'tgan. Yozda hayot osonroq, qishda esa qiyinroq kechgan. Ular sovuqdan saqlanish uchun mo'ynalarga o'ranishardi. Hashak va mohlarda uxlashardi. Bunday ayozli sovuqlarda ular tinimsiz olov yoqishar va uning atrofida oila, guruh bo'lib isinishardi. G'or og'zini ham po'stinlar bilan berkitishgan bo'lishsa kerak deb taxmin qilinadi.

Qishda ularga oziq-ovqat yetmagan. Bunday davrda ov jaryoni qiyin kechgan va ko'pincha samarasiz bo'lgan. Agar bunday sovuqlarda yovvoyi to'ng'izni ovlashga muyassar bo'lishsa sovuqda go'sht sasimaganligi uchun tejab yeyishgan. Ammo ularni tejayolganmi yo'qmi noma'lum³².

Hayotiy qiyinchiliklar tufayli ular uzoq umr ko'rishmagan. La- Shapel- O-Sendagi neandertal ma'lumotlarga qaraganda taxminan 40-yil yashagan. Noqulay iqlim, ochlik, kasallik, doimiy xavflar, iflos sharoit- bular hammasi qisqa umrlikka sabab bo'lgan. Ularning kuchlari ko'p va baquvvat bo'lishiga qaramasdan shu

³² Автор составитель. Е.Кют. "Древние люди". Санк-Петербург. 2007. Стр-160-165.

narsa aniqlanganki, tosh asrida erkaklar 30 yildan ortiq umr ko'rishmagan. Tug'riq paytidagi o'limlar ayollarni qirilishiga sabab bo'lgan.

Hozirgi jismoniy tipdagi odam neantropolar "yangi odamlar" yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan. Neantropolaro'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi odamlardan sifat jihatidan, tubdan farq qilgan.


Shuning uchun ham uni Homo- sapienslar deb atashgan. Ular tashqi qiyofasi bilan hozirgi qiyofadagi odamni eslatadi. Neantropolar bundan 40-35 ming yil muqaddam so'nggi tosh asrining boshlaridan paydo bo'gan. Bu tip odam miyasining hajmi 1400-1560 santimetr kubga teng bo'lib peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha baland bo'lgan³³.

Ularda miyaning eng progressiv uchastkalari ya'ni boshning tepa qismi ikki chekka, ayniqsa peshona kattalashgan edi. Neantrop odamlarning tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lgan. Ularda qosh-qovoqusti qabartma suyagi yo'q bo'lib, pastki jagida zamonaviy odamlarniki kabi do'mboq iyagi bo'lgan.

Bu davr kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odaminiki singari bo'lib, ular to'ppa –to'g'ri yurganlar. Ularning qo'l –oyoqlari, tana tuzilishi bir-birlariga mutanosib bo'lib, tez chopay olgan. Agar neantrop bilan hozirgi zamon odaminin suyaklari bir-biriga qiyos qilinsa, ularning jismoniy tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Shunday qilib qadimgi paleolitning boshlariga kelib, neandertallardan hozirgi zamon jismoniy tipdagi odam paydo bo'ldi. Shu bilan antropogenez jarayoni asosan tugallandi, odam o'z biologik rivojlanishini yakunladi.

³³Алексеев.В.П. "Становление человечества". Москва.1984. стр-75-78.

Eng qadimgi odamlarning ovchiligi va termachiligi



Xulosa

Men bu kurs ishi mavzusini o'rganish davomida shunday xulosaga keldimki, Oллоh taolo tomonidan yaratilgan barcha mavjudotlarning gultoji hisoblangan odamzot o'zining hozirgi zamonaviy qiyofaga kelguniga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan va nihoyat Paleolitning so'nggi bosqichiga kelib, miloddan avvalgi 40-12 ming yillik oraligida zamonaviy ko'rinishda aks etgan.

Shunday savol tug'ilishi mumkin, hozirgi zamonaviy qiyofadagi odamlarning ajdodlari kim?, ular qay tarzda shakllangan?.

Hozirgi paytda odamzotni paydo bo'lishi masalasida biz ikki xil nazariyani ilgari surishimiz mumkin: birinchisi diniy, ikkinchisi ilmiy.

Diniy nuqtai nazardan odamzot, Odamato va Momohavodan tarqagan bo'lsa, ilmiy nuqtai nazardan odamzot qadimgi odamsifat maymunlardan tarqagan. Xulosa qilib aytganda, biz faqatgina diniy tomondan yondoshmasdan, ilmiy tomondan ham tahlil qiladigan bo'lsak, odamzotni qadimgi odamsifat maymunlardan tarqagan ekanligiga shubha yo'q.

Chunki, odamzotning qadimgi maymunlardan tarqaganligiga, suyak qolodidlari, mehant qurollari va joy makonlarining topilishi bunga dalil bo'la oladi. Qadimgi maymunlarning morfologiyasi va ularning sekin-asta iqlimga moslashib, o'z mehnatlari orqali hayvonot olamidan ajralib, hozirgi zamonaviy inson qiyofasini shakllantirganligi fikrimizning dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi.(ma'ruzalar matni). Toshkent. 2005.
2. Bobobekov A. "Ibtidoiy jamiyat tarixi".(ma'ruzalar matni).
3. Алексеев В.П.Першиц "История первобытного общества". М. 2001.
4. Алексеев В.П.Першиц. "История первобытного общества".М. 1999.
5. Алексеев В.П. "Становление человечества". М. 1984.
6. Рогинский Я.Я. Левин М.Г. "Антропология". М. 1978.
7. Борисковский П.В. "кишиликининг энг кадимги хаёти". М.1980.
8. Составител автор Е.Кют. "Древние люди". Санк-Петербург. 2007.
9. Philip Stein, Bruce Rowe. "Physical Anthropology" 1996.
10. Internet ma'lumotlari: www. Википедия.